




Yoz faslida biz qanday kiyimlarni kiyamiz? Nima uchun?

1. Sayyoramizdagi eng issiq joylar qayerda joylashgan?

Yer shari markazidan aylana bo'ylab o'tgan chiziq **ekvator chizig'i** deyiladi. Bu chiziq Yerni teng ikki qismga – Shimoliy va Janubiy yarimsharlarga bo'ladi. Buni globusda yaqqol ko'rishimiz mumkin.

Yer Quyosh atrofida aylanishi davomida quyosh nurlari ekvatorga deyarli har doim tikka tushadi. Shu sababli ekvatorga yaqin joylar sayyoramizdagi eng issiq joylar hisoblanadi. U yerlarda qish deyarli bo'lmaydi.



Ekvator chizig'i ajoyib tabiati bilan ajralib turadi. Yog'ingarchilik kam bo'lgan yerlarda cho'llar hamda savannalar yuzaga kelgan. Iqlim juda nam va tez-tez yog'ingarchilik bo'lib turadigan yerlarda esa tropik o'rmonlar bor.



1-topshiriq.

Sayyoramizdagi eng issiq joylarni qizil rangga, eng sovuq joylarni esa ko'k rangga bo'yang.

2. Savanna

Savanna – turli xil o't-o'lanlar, noyob daraxt va butalarga boy bo'lgan tropik dasht. Bu yerlarda akatsiya va baobab daraxtlari eng ko'p tarqalgan. Bu daraxtlar uzoq vaqt davomli qurg'oqchilikka moslashgan.

Qish kunlari savannada quruq muhit hukmronlik qiladi. Havo harorati $+20^{\circ}\text{C}$ gacha tushib, kuchli shamollar esadi. Yoz fasliga kelib, yomg'irli mavsum boshlanadi. Bu vaqtda savanna gullab-yashnaydi. Odatda, aynan yomg'irli mavsumda ko'plab hayvonlar bolalaydi.

Savannada fil, jirafa, arslon, sirtlon, qoplon, gepard, zebra, karkidon, qo'tos kabi noyob hayvonlar juda ko'p. Shuningdek, u yerda zaharli ilonlar, o'ljasini daryoda pistirmadan turib kuzatayotgan timsohlarni ham uchratish mumkin.



2-topshiriq.

Savannada yashaydigan o'txo'r va yirtqich hayvonlarni ikki guruhga ajratib yozing.

3. Tropik o'rmonlar

Tropik o'rmonlar savannalardan nam va issiq iqlimi bilan ajralib turadi. U yerda yil davomida yomg'ir yog'adi. Tropik o'rmonlar jungli (changalzor) deb ataladi.

Jungli o'rmonlarida o'simliklar bir nechta qatlamda o'sadi. Baland daraxtlarning toj qismi chirmashib o'suvchi lianalar bilan o'ralgan. Ulardan pastroqda kichikroq daraxtlar o'sadi. Bu daraxtlar ostini esa buta va o'tlar qoplagan. Ko'pchilik daraxtlarni va o'rmon yuzini moxlar qoplab turadi.



Bilasizmi?

Olimlar ekvatoridan qutbgacha bo'lgan hududda yashovchi turli qushlarning patlarini o'rganib, ularning orasida ekvator yaqinidagi o'rmonlarda yashovchi qushlar rang-barang va eng yorqin tusga ega ekanligini aniqlashdi.

Olimlarning fikriga ko'ra, qushlarning yorqin tusi qorong'i o'rmonda bir-birlarini yaqqol ko'ra olishida muhim rol o'ynar ekan.



4. Ekvatorning ajabtovur jonivorlari

Ekvatorning tropik o'rmonlarida ko'plab hayvonlar yashaydi. Ular orasida yirtqichlar ham, o'txo'rlar ham bor. Amazonka daryosining bo'ylarida yaguar, yalqov va kapibaralarni hamda rang-barang to'tiqushlar va kolibrilarni uchratish mumkin. Amazonka suvlarida esa xavfli timsohlar hamda yirtqich piranya baliqlari yashaydi.

Hindiston o'rmonlarida va Afrika savannalarida hayratlanarli darajada aqlli hayvonlar – fillar yashaydi. Hindistonda fillar uzoq davrlardan buyon qo'lga o'rgatib kelingan va ulardan og'ir yuk tashuvchi kuch sifatida foydalanilgan. Afrika fili hindistonlik fillardan yirikroq va uni qo'lga o'rgatish ancha qiyin.

Fillar o't, butoq va daraxtlarning mevalari bilan oziqlanadi. Katta yoshli fil uchun har kuni taxminan 200 litr suv kerak bo'ladi. Fillar tik turib uxlaydi. Fillar harakatlanayotganlarida yoki o'tlayotganlarida ularning bolalari doimo to'daning o'rtasida bo'ladilar.



Timsohlar savanna va jungli o'rmonlari daryolarida yashaydi. Eng katta timsohning uzunligi 7 metrga yetadi. Timsohlar hayvonlarni tutib yeydi. Ular tanalarini suv ostiga yashirib, hayvonlarning daryoni kechib o'tishlari yoki

suv ichish uchun kelishlarini poylab yotadi. Hayvonlar suvga tushgan zahoti timsohlar o'ljasiga pistirmadan turib hujum qiladi.



3-topshiriq.

Tropik o'rmonlarda yashaydigan hayvonlarning nomini yozing.



Issiq o'lkalarda yashovchi hayvonlardan biri haqida ma'lumot tayyorlang.